

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING HUQUQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYAT YO'NALISHLARINING AHAMIYATI

Tojiboyeva Gulchexra Sadridinovna

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati

Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22701077>

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda o'qitish nafaqat qonuniy qonun loyihalarida, balki ingliz tiliga asoslangan milliy minnatdorchilik va parkga a'zolikka asoslangan amaliy amaliyotda ham huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan. Shaxsning madaniy tiklanish huquqlari va uning qimmatli fazilatlarini bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, milliy qadriyatni rivojlantirish eng muhim axloqiy asosdir.

"Qizilqish", "qadrlash" va "maqsad" inson xulq-atvori, harakati va faoliyatining toifalari bo'lib, shuningdek, Davlat siyosati eng muhim manfaatdor tomonlar va raqamlarni tavsiflaydi. O'zbekiston Respublikasida har bir davlatning o'z siyosatchilari va amalgaoshiradi arboblari bor, ular Milliy maqsadlar va kamsituvchilar sifatida tan olingan Olga xolda belgilaid.

THE IMPORTANCE OF NATIONAL VALUES IN DEVELOPING THE LEGAL LITERACY OF HIGH SCHOOL STUDENTS

Annotation. Currently, the training focuses on improving legal literacy not only in statutory bills, but also in practical practice based on national appreciation and park membership based on the English language. Since the rights of a person to cultural revival and its valuable qualities are directly related, the development of national values is the most important moral basis.

"Red", "appreciation", and "purpose" are categories of human behavior, action, and activity, and also describe the most important stakeholders and figures in Public Policy. In the Republic of Uzbekistan, each state has its own politicians and leaders who are recognized as national goals and leaders.

ЗНАЧЕНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ СТАРШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Abstraktny. В настоящее время обучение направлено на повышение юридической грамотности не только в юридических законопроектах, но и в практических практиках, основанных на английском языке, таких как национальная благодарность и членство в парке. Поскольку непосредственно связаны права личности на культурное возрождение и ее ценные качества, развитие национальной ценности является важнейшей моральной основой.

"Краснеть", "ценить" и "цель" - это категории человеческого поведения, действий и действий, а также те, которые Государственная политика описывает наиболее важные заинтересованные стороны и фигуры. В Республике Узбекистан в каждом государстве есть свои политики и действующие лица, по определению Ольги Хол, которые признаны национальными целями и противниками.

Kalit so'zlar. *Huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, yuqori sinf o'quvchilari, ijtimoiy-pedagogik vazifa, huquqiy norma, ta'lim tizimi.*

Kirish. Falsafa qomusiy lug'atida qadriyatlar "voqelikdagi jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblanadi. Qadriyatlar umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy bo'lishi mumkin deb talqin qilingan".

Qiyomiddin Nazarovning "Qadriyatlar falsafasi" nomli risolasida "milliy qadriyatlar muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar,

yashayotgan hudud, madaniy ma'naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikni tartib qoidalari hamda ular bilan bog'liq xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan, umum ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi xususiy bo'g'in, ya'ni millatga xos bo'lgan qadriyatlarning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi”, deb talqin etilgan.

B.X.Xakimjonov milliy qadriyatlarni quyidagicha: “muayyan hudud, mintaqaga xos bo'lgan insonni komillik sari yetaklovchi, insonda mehr muruvvat, adolat, to'g'rilik, or-nomus, mustahkam iroda kabi ezgu xislatlarni shakllantirishda ko'makchi bo'luvchi moddiy va ma'naviy manbalar majmuidir”, deb izohlaydi.

U.X.Rizaeva milliy qadriyat borasida olib borgan tadqiqotlariga milliy qadriyadga quyidagicha ta'rif beradi: “milliy qadriyat – bu kishilarning ona-yurtiga, o'z Vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha bo'lib, milliy qadriyat barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlarning biridir”.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar tushunchasi jamiyat va shaxs hayotida universal hamda ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, u nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega hodisalarni, balki insonning ichki dunyosi, axloqiy pozitsiyasi va hayotiy yo'nalishlarini ham belgilab beradi. Xususan, milliy qadriyatlar esa umumiy qadriyatlar tizimining muayyan millatga xos bo'lgan, tarixiy, madaniy va ma'naviy tajriba asosida shakllangan alohida qatlamini tashkil etadi.

Bizningcha, milliy qadriyatlar – bu faqat tarixiy meros yoki an'anaviy me'yorlar majmui emas, balki ular shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida uning dunyoqarashi, xulq-atvori va huquqiy ongini shakllantiruvchi ichki regulativ tizim sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihat milliy qadriyatlarni pedagogik jarayonda, xususan, yuqori sinf o'quvchilarining huquqiy savodxonligini rivojlantirishda muhim metodologik asosga aylantiradi.

Shuningdek, milliy qadriyatlar shaxsda huquqiy normalarga nisbatan tashqi bo'ysunishni emas, balki ichki e'tiqodga asoslangan ongli munosabatni shakllantiradi. Ya'ni, o'quvchi qonunlarga rioya etishni majburiyat sifatida emas, balki adolat, vijdon, or-nomus kabi qadriyatlarning mantiqiy davomiyligi sifatida anglay boshlaydi. Bu esa huquqiy savodxonlikning kognitiv darajadan aksiologik darajaga ko'tarilishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlar tizimi o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va jamiyatdagi o'z o'rnini anglash kabi sifatlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayonida milliy qadriyatlarni integrativ yondashuv asosida qo'llash nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki uning tarbiyaviy samaradorligini ham oshiradi.

Demak, milliy qadriyatlarni huquqiy ta'lim jarayoniga maqsadli integratsiya qilish orqali o'quvchilarda huquqiy bilim, qadriyat va xulq-atvor o'rtasidagi uzviylik ta'minlanadi hamda bu jarayon ularning barqaror huquqiy madaniyatga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyatining tarixiy rivojlanishi jarayonida mamlakatning geosiyosiy holatiga muvofiq shakllangan. Bu, avvalo, jamiyatning o'ziga xosligini, o'ziga xos xarakterini, urf-odatlarini, an'analari va turmush tarzini, ko'p millatli xalqning eng muhim ehtiyojlarini mujassam etuvchi asosiy axloqiy-me'yoriy tasavvurlar va me'yorlardir. Obrazli qilib aytganda, ular uning ma'naviy hayotining markazi, eng yaxshi sifat va fazilatlarining sintezidir. Milliy qadriyatlar inson va fuqaroning hayotiy pozitsiyasini, uning jamiyat va davlatga, o'tmish, hozirgi va kelajakdagi mamlakatiga bo'lgan munosabatini, milliy boylikni saqlash va ko'paytirish uchun

“Milliy qadriyat” – bu huquqiy madaniyatning asosi bo'lib, u an'analari, til va tarixga hurmatni huquqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtiradi. U huquqiy savodxonlikni oshiradi, qonunlarga rioya qilishni majburiyat emas, balki ongli, axloqiy burchga aylantiradi. Bu esa inson huquqlari va adolat qadriyatlariga asoslangan huquqiy ongni shakllantiradi.

Milliy qadriyatlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy, ma'naviy va madaniy me'yorlar majmuini ifodalaydi. Ular shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini yo'naltiruvchi ichki mezon sifatida namoyon bo'lib, huquqiy me'yorlarning mazmunini anglash va ularni ongli ravishda qabul qilishga zamin yaratadi. Shu jihatdan qaraganda, o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayonida milliy qadriyatlarga tayanish pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori sinf o‘quvchilari shaxs sifatida shakllanish jarayonining muhim bosqichida bo‘lib, aynan ushbu davrda ularning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy qarashlari hamda fuqarolik pozitsiyasi faol rivojlanadi. Shu sababli huquqiy bilimlarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda huquqiy me‘yorlarni faqat tashqi talab sifatida emas, balki ichki ehtiyoj va e‘tiqod darajasida qabul qilishga xizmat qiladi. Bu esa huquqiy savodxonlikning shakllanishida muhim psixologik-pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar, xususan, adolat, halollik, mas‘uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tushunchalar huquqiy normalarning mazmuniga yaqin bo‘lib, o‘quvchilarda qonunlarga hurmat va huquqiy tartibga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois “Davlat va huquq asoslari” fanini o‘qitishda milliy qadriyatlarni mazmunan integratsiya qilish, huquqiy tushunchalarni milliy-ma‘naviy kontekstda izohlash o‘quvchilarning huquqiy tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqori sinf o‘quvchilarining huquqiy savodxonligini rivojlantirish zamonaviy ta‘lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur jarayon faqat huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish bilan chegaralanmay, balki o‘quvchilarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, huquqiy savodxonlikni rivojlantirishda milliy qadriyat yo‘nalishlariga asoslangan yondashuv muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki milliy qadriyatlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi va axloqiy me‘yorlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, ular shaxsning huquqiy xulq-atvorini ichki tartibga soluvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarga tayangan holda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish o‘quvchilarda huquqiy normalarni faqat tashqi majburiyat sifatida emas, balki ichki e‘tiqod va hayotiy prinsip sifatida qabul qilishga olib keladi. Bu esa huquqiy bilimlarning barqaror o‘zlashtirilishini ta‘minlab, ularning amaliy faoliyatda qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilari shaxsiy pozitsiyasi shakllanayotgan, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildirayotgan davrda milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv ularning huquqiy tafakkurini chuqurlashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

Mazkur jarayonni tizimli tashkil etish uchun milliy qadriyatlarni muayyan yo‘nalishlarga ajratish va ularning huquqiy savodxonlikka ta‘sir mexanizmini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda milliy qadriyatlar quyidagi asosiy yo‘nalishlar kesimida tizimlashtiriladi(1.3.2-jadvalga qarang):

1.3.2-jadval

Milliy qadriyat yo‘nalishlarining huquqiy savodxonlikni rivojlantirishdagi mazmuni va pedagogik imkoniyatlari

Milliy qadriyat yo‘nalishi	Mazmuni	Huquqiy savodxonlikka ta‘siri	Pedagogik imkoniyatlari
<i>Axloqiy qadriyatlar yo‘nalishi</i>	Adolat, halollik, vijdon, insofililik	Huquqiy normalarni ichki e‘tiqod sifatida qabul qilishni shakllantiradi	Muammoli vaziyatlar, axloqiy tanlovga asoslangan topshiriqlar
<i>Ijtimoiy qadriyatlar yo‘nalishi</i>	Hamjihatlik, mas‘uliyat, fuqarolik burchi	Fuqarolik ongini va ijtimoiy javobgarlikni rivojlantiradi	Guruhli ishlash, debat, ijtimoiy loyihalar
<i>Madaniy qadriyatlar yo‘nalishi</i>	An‘ana, urf-odat, milliy o‘zlik	Huquqiy me‘yorlarni milliy kontekstda anglashni ta‘minlaydi	Tarixiy misollar, madaniy vaziyatlar asosida tahlil
<i>Huquqiy qadriyatlar yo‘nalishi</i>	Qonunga hurmat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat	Huquqiy bilimlarni tizimli o‘zlashtirish va qo‘llashga xizmat qiladi	Keys-stadi, rolli o‘yinlar, huquqiy tahlil mashg‘ulotlari

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, milliy qadriyatlar yo‘nalishlari o‘zaro integratsiyalashgan holda o‘quvchilarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishda kompleks ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, axloqiy qadriyatlar huquqiy me‘yorlarning ichki motivatsion asosini shakllantirsa, ijtimoiy qadriyatlar ularni ijtimoiy muhitda amaliy qo‘llashni ta‘minlaydi. Madaniy qadriyatlar esa huquqiy bilimlarni milliy kontekstda anglashga yordam berib, ularning mazmunini o‘quvchilar uchun yanada yaqin va tushunarli

qiladi. Huquqiy qadriyatlar esa ushbu jarayonni tizimlashtirib, huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Milliy qadriyat yo‘nalishlari asosida huquqiy savodxonlikni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri – bu transformatsion pedagogik mexanizmning yuzaga kelishidir. Ya‘ni, huquqiy bilimlar o‘quvchilarda avval kognitiv darajada shakllanib, keyinchalik qadriyatlarga asoslangan ongli munosabatga, undan esa barqaror xulq-atvorga aylanish jarayoni yuz beradi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda namoyon bo‘ladi: huquqiy bilimlarni idrok etish, ularni milliy qadriyatlar bilan bog‘lash, shaxsiy e‘tiqod sifatida qabul qilish va nihoyat amaliy faoliyatda qo‘llash.

Mazkur yondashuv o‘quvchilarda huquqiy savodxonlikning faqat nazariy emas, balki amaliy komponentini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, keys-stadi metodlari orqali o‘quvchilar real hayotga yaqin sharoitlarda huquqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning huquqiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, mustaqil fikrlash va mas‘uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham mustahkamlaydi.

Yuqori sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan huquqiy ta‘lim jarayoni ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki aynan ushbu davrda o‘quvchilarda qadriyatlarga asoslangan dunyoqarash, ijtimoiy pozitsiya va fuqarolik mas‘uliyati shakllanadi. Milliy qadriyatlar esa bu jarayonda yo‘naltiruvchi va tartibga soluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Milliy qadriyat yo‘nalishlariga asoslangan yondashuv huquqbuzarliklarning oldini olishda ham muhim profilaktik ahamiyatga ega. O‘quvchilarda adolat, mas‘uliyat, hurmat va bag‘rikenglik kabi fazilatlar shakllanganda, ular huquqiy me‘yorlarga ongli ravishda rioya etishga intiladilar. Natijada, deviant xulq-atvorning oldi olinib, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Bizningcha, milliy qadriyat yo‘nalishlariga asoslangan yondashuv yuqori sinf o‘quvchilarining huquqiy savodxonligini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm bo‘lib, u huquqiy bilim, qadriyat va xulq-atvorning integratsiyasini ta‘minlash orqali o‘quvchilarda barqaror huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqori sinf o‘quvchilarida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayonida milliy qadriyatlar muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar shaxsning ichki e‘tiqodi, ijtimoiy munosabati va xulq-atvorini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ular huquqiy me‘yorlarni ongli ravishda qabul qilishga zamin yaratadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayoni milliy qadriyatlar orqali amalga oshirilganda, o‘quvchilarda huquqiy bilimlar faqat nazariy darajada emas, balki ichki qadriyat sifatida shakllanadi. Shu sababli milliy qadriyatlar asosida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish mexanizmini tizimli ravishda ko‘rsatish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi(1.3.2-jadvalga qarang).

1.3.2-jadval

Milliy qadriyatlar asosida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish mexanizmlari

Milliy qadriyat	Pedagogik ta‘sir mexanizmi	Huquqiy ongga ta‘siri	Huquqiy xulq-atvorga ta‘siri
Adolat	Huquqiy tushunchalarni adolat tamoyili bilan bog‘lab tushuntirish	Huquqiy me‘yorlarni adolat mezonida asosida anglash shakllanadi	Qonunlarga rioya qilish va adolatli xatti-harakatni tanlash rivojlanadi
Halollik	Tarbiyaviy faoliyatda halollikni asosiy mezon sifatida qo‘llash	Huquqiy me‘yorlarga nisbatan ijobiy ichki munosabat shakllanadi	Huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik paydo bo‘ladi
Mas‘uliyat	Huquq va majburiyatlar uyg‘unligini tushuntirish	Shaxsda huquqiy javobgarlik hissi shakllanadi	Qonuniy xatti-harakatni ongli ravishda bajarish ko‘nikmasi rivojlanadi

Vatanparvarlik	Konstitutsiya va fuqarolik burchlari bilan bog'lash	Huquqiy ongda fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi	Jamiyat manfaatlariga mos huquqiy faoliyat rivojlanadi
Insonparvarlik	Inson huquqlari tushunchasini milliy qadriyatlar bilan integratsiya qilish	Inson huquqlariga hurmat shakllanadi	Boshqalarning huquqlarini himoya qilishga moyillik ortadi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirishda vositachi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ya'ni, huquqiy bilimlar milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashganda, ular o'quvchilarning ongida ichki e'tiqodga aylanadi va bu o'z navbatida huquqiy xulq-atvorni shakllantiradi.

Masalan, adolat qadriyati huquqiy me'yorlarning mazmunini anglashga xizmat qilsa, mas'uliyat esa ushbu me'yorlarga amal qilish zaruratini ichki ehtiyoj darajasiga olib chiqadi. Halollik va insonparvarlik kabi qadriyatlar esa huquqbuzarliklarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirib, qonuniy xatti-harakatni mustahkamlaydi.

Shu jihatdan qaraganda, milliy qadriyatlar orqali huquqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayoni bilim → qadriyat → xulq zanjiri asosida emas, balki qadriyat → anglash → ongli xatti-harakat mexanizmi asosida amalga oshadi.

Huquqiy madaniyatning birinchi va eng asosiy komponentlaridan biri – bu huquqdir. Huquqni to'liq va chuqur anglash uchun uni faqat qonunchilik tizimi sifatida emas, balki shakl va mazmun birligida qarash zarur. Ya'ni, huquq nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, inson xulq-atvorini yo'naltiruvchi va qadriyatlar bilan uzviy bog'langan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Huquqning yuridik mazmuni sifatida e'tirof etiladigan normativ-huquqiy ko'rsatmalar tizimi pedagogik nuqtai nazardan talqin etilganda, u o'quvchilarda huquqiy bilim, tushuncha va xulqiy me'yorlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik mazmun sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, huquqiy normalar faqat nazariy qoidalar yig'indisi emas, balki ta'lim jarayonida o'quvchining ongiga singdiriladigan, uning hayotiy faoliyatida yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-axloqiy mezonlar tizimidir.

Pedagogik jihatdan “normativ-huquqiy ko'rsatma” tushunchasi o'quvchilarga huquqiy bilimlarni tizimli, izchil va ongli ravishda yetkazish imkonini beruvchi o'quv mazmunining asosiy birligi sifatida qaraladi. Ushbu ko'rsatmalar orqali o'quvchilar huquqning funksiyalari, prinsiplari va normalarini nafaqat bilib oladilar, balki ularning mazmunini anglaydi, real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish ko'nikmalarini ham egallaydilar. Natijada huquqiy bilimlar reproduktiv darajadan faol-amaliy darajaga ko'tariladi.

Shu nuqtai nazardan, huquqni pedagogik mazmunda talqin etganda, uni umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimi sifatida emas, balki o'quvchilarda huquqiy ong, huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks ta'limiy-tarbiyaviy vosita sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir. Bunda normativ-huquqiy ko'rsatmalar o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyituvchi, ularni adolat, mas'uliyat, qonunga hurmat ruhida tarbiyalovchi pedagogik resursga aylanadi.

Huquqiy madaniyat tuzilmasining navbatdagi muhim tarkibiy komponenti – bu huquqiy ongdir. Nazariy manbalar hamda inson xulq-atvorining psixik mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, huquqiy madaniyat tarkibiga nafaqat ongli, balki ongsiz (intuitiv, avtomatik) psixik elementlar ham kiradi. Bu esa huquqiy xulq-atvorning shakllanishi murakkab psixologik jarayon ekanligini anglatadi.

Huquqiy ong pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, o'quvchilarning amaldagi huquqiy tizim, huquq normalari va ularning amaliy qo'llanishi haqidagi bilimlari, tasavvurlari hamda shaxsiy munosabatlarni ifodalovchi integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi. U o'quvchilarda huquqiy hodisalarga nisbatan baholovchi munosabatni, ya'ni “nima to'g'ri – nima noto'g'ri”, “nima adolatli — nima adolatsiz” kabi mezonlar asosida fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bois huquqiy ongni rivojlantirish jarayoni faqat axborot berish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarda huquqiy qadriyatlar, e'tiqod va ichki pozitsiyani shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Huquqiy madaniyatni o'rganishda uning asosiy turlarini ajratish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu o'quvchilarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishda differensial yondashuvni ta'minlaydi.

1. Huquqiy madaniyat shaxs, ijtimoiy guruh va jamiyat darajasida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mansabdor shaxslarning huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ularning huquqiy savodxonligi davlat hokimiyatining nufuzi va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2. Huquqiy madaniyat oddiy (kundalik) va ilmiy turlarga ajratiladi. Oddiy huquqiy madaniyat kundalik hayotdagi huquqiy xatti-harakatlarda namoyon bo'lsa, ilmiy huquqiy madaniyat maxsus nazariy bilimlar va tahliliy faoliyatni o'z ichiga oladi.

3. Huquqiy madaniyat huquq tarmoqlari kesimida ham farqlanadi: fuqarolik, jinoyat, ma'muriy va sud-protsessual yo'nalishlar. Bu yondashuv huquqiy faoliyatning sohaviy xususiyatlarini aks ettiradi.

4. Huquqiy madaniyat professional va noprofessional turlarga bo'linadi. Professional huquqiy madaniyat maxsus yuridik bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga olsa, noprofessional tur keng jamoatchilikka xos umumiy huquqiy savodxonlikni ifodalaydi.

5. Tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan huquqiy madaniyat turli ijtimoiy tuzumlarga xos holda shakllanadi va rivojlanadi, bu uning dinamik xususiyatini ko'rsatadi.

6. Huquqiy tizimlarga ko'ra roman-german, anglosakson va an'anaviy-diniy huquqiy madaniyat turlari ajratiladi, bu esa huquqiy qadriyatlarining milliy va madaniy xususiyatlarini ifodalaydi.

7. Huquqiy qadriyatlarining ustuvorligiga ko'ra hukmron va bo'ysunuvchi huquqiy madaniyat turlari farqlanadi.

8. Huquqiy madaniyat ijtimoiy qatlamlar kesimida ham ko'rib chiqiladi, ya'ni hukmron va boshqa qatlamlarga xos huquqiy madaniyat mavjud.

9. Rivojlanish darajasiga ko'ra huquqiy madaniyat yuqori, o'rta va past darajalarga ajratiladi, bu esa diagnostik baholash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

10. Yuridik amaliyotga ko'ra huquqiy madaniyat huquq ijodkorligi, huquqni sharhlash, tizimlashtirish, qo'llash, sud, tergov va boshqa faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

11. Huquqiy madaniyat jamiyatning turli sohalarida — ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo va boshqa yo'nalishlarda o'ziga xos tarzda shakllanadi.

12. Har bir jamiyatda ommaviy va elitar huquqiy madaniyat mavjud bo'lib, birinchisi keng aholi qatlamlariga xos bo'lsa, ikkinchisi chuqur bilim va tahliliy yondashuv bilan tavsiflanadi.

Mazkur tasnif huquqiy madaniyatning ko'p qirrali va murakkab tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi hamda pedagogik jarayonda o'quvchilarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishda differensial va tizimli yondashuvni qo'llash zaruratini asoslaydi.

Yuqorida keltirilgan huquqiy madaniyat turlarining tasnifi shuni ko'rsatadiki, huquqiy madaniyat ko'p qirrali va turli darajalarda namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Bizningcha, mazkur turlarni samarali shakllantirish va rivojlantirishda milliy qadriyat yo'nalishlariga tayangan holda yondashish muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, huquqiy madaniyatning shaxs, ijtimoiy guruh va jamiyat darajalarida shakllanishi milliy qadriyatlar orqali ta'minlanadi. Chunki milliy qadriyatlar o'quvchilarda fuqarolik burchi, ijtimoiy mas'uliyat va jamiyatga daxldorlik hissini shakllantiradi, bu esa huquqiy madaniyatning barcha darajalarida uzviylikni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, oddiy va ilmiy huquqiy madaniyat turlarini rivojlantirishda milliy qadriyatlar o'quvchilarning kundalik hayotdagi huquqiy xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarishga yordam beradi. Xususan, milliy qadriyatlar asosida shakllangan axloqiy me'yorlar huquqiy normalarning hayotiy mazmunini ochib beradi.

Uchinchidan, huquq tarmoqlari kesimidagi huquqiy madaniyatni rivojlantirishda milliy qadriyatlar har bir soha mazmunini ijtimoiy-madaniy kontekst bilan boyitadi. Bu esa o'quvchilarning huquqiy bilimlarni real hayot bilan bog'lashiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, professional va noprofessional huquqiy madaniyat shakllanishida milliy qadriyatlar asosiy yo'naltiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, kelajak kasbiy faoliyatga tayyorlanayotgan o'quvchilarda halollik, adolat, mas'uliyat kabi qadriyatlar huquqiy faoliyatning sifatini belgilaydi.

Beshinchidan, huquqiy madaniyatning tarixiy turlarini anglashda milliy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining uzviyligini tushunishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarda tarixiy-huquqiy tafakkurni shakllantiradi.

Oltinchidan, turli huquqiy tizimlarga xos madaniyatlarni o'rganishda milliy qadriyatlar o'ziga xos identifikatsiya mezon sifatida xizmat qiladi va o'quvchilarda milliy huquqiy tafakkurni mustahkamlaydi.

Yettinchi va sakkizinchi tasniflar – ya'ni hukmron va bo'ysunuvchi, shuningdek ijtimoiy qatlamlarga xos huquqiy madaniyat – milliy qadriyatlar orqali ijtimoiy adolat va tenglik g'oyalarini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.

To'qqizinchidan, huquqiy madaniyat darajalarini (yuqori, o'rta, past) aniqlashda milliy qadriyatlar mezon sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunki shaxsning qadriyatlarga asoslangan munosabati uning huquqiy yetuklik darajasini belgilaydi.

O'ninchidan, yuridik amaliyot turlarida milliy qadriyatlar huquqni qo'llashda insonparvarlik, adolat va mas'uliyat tamoyillarini ta'minlaydi.

O'n birinchidan, jamiyatning turli sohalarida huquqiy madaniyatni rivojlantirishda milliy qadriyatlar universal pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'n ikkinchidan, ommaviy va elitar huquqiy madaniyat shakllanishida milliy qadriyatlar ularning mazmuniy asosini tashkil etib, huquqiy bilim va qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlaydi.

Demak, huquqiy madaniyat turlarining har birini milliy qadriyat yo'nalishlari bilan integratsiyalash asosida rivojlantirish o'quvchilarda huquqiy bilim, huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorning uzviyligini ta'minlaydi hamda ularning barqaror huquqiy madaniyatga ega shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur paragraf doirasida yuqori sinf o'quvchilarining huquqiy savodxonligini rivojlantirishda milliy qadriyat yo'nalishlarining o'rni va ahamiyati nazariy hamda metodologik jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar, mavjud falsafiy, pedagogik va huquqiy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, huquqiy savodxonlikni samarali shakllantirish uchun uning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish va ularni milliy qadriyatlar tizimi bilan uyg'un holda talqin etish zarur.

Shu nuqtai nazardan, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, huquqbuzarlik kabi asosiy kategoriyalar qayta ko'rib chiqilib, ularning mazmuni nafaqat yuridik, balki pedagogik va aksiologik yondashuv asosida boyitildi. Ayniqsa, mazkur tushunchalarning milliy qadriyat yo'nalishida talqin etilishi o'quvchilarda huquqiy bilimlarning ichki e'tiqodga aylanishi hamda huquqiy xulq-atvorning barqaror shakllanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida qaraldi.

Shu asosda quyidagi asosiy tushunchalar aniqlashtirildi va milliy qadriyatlar kontekstida izohlandi:

Huquqiy madaniyat – milliy qadriyatlar (adolat, halollik, or-nomus, mas'uliyat, bag'rikenglik) asosida shakllanadigan, jamiyatda huquqqa ongli munosabatni, qonunga hurmatni va ijtimoiy xulqning madaniy me'yorlarga mosligini ifodalovchi integrativ sifatidir. U o'quvchida huquqiy bilimlarning milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi orqali barqaror xulq-atvorga aylanishini ta'minlaydi.

Huquqiy ong – shaxsning huquqiy normalarni milliy qadriyatlar prizmasi orqali anglash, baholash va qabul qilishga asoslangan ichki e'tiqodlar tizimidir. U adolat va vijdon kabi qadriyatlar bilan boyitilgan holda “qonun – majburiyat” emas, balki “qonun – qadriyat” sifatida idrok etilishini ta'minlaydi.

Huquqiy savodxonlik – o'z huquq va majburiyatlarini bilish bilan birga, ularni milliy qadriyatlarga mos ravishda qo'llay olish, ijtimoiy vaziyatlarda adolatli va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmasidir. Bu savodxonlik turi huquqiy bilimlarning amaliy va qadriyatlarga yo'naltirilgan qo'llanilishini ifodalaydi.

Delinkvent xulq-atvor – milliy qadriyatlarga zid bo'lgan, ya'ni mehr-muruvvat, hurmat, mas'uliyat va adolat tamoyillarini inkor etuvchi, jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar majmui sifatida namoyon bo'ladi.

Huquqbuzarlik – nafaqat huquqiy normalarni buzish, balki milliy qadriyatlar tizimiga qarshi bo'lgan xatti-harakat bo'lib, u ijtimoiy muvozanat va ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyat – milliy qadriyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillariga jiddiy zid bo'lgan, jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi og'ir huquqbuzarlik sifatida talqin etiladi.

Huquq – milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, adolat va tenglikni ta'minlovchi, shaxs xulq-atvorini yo'naltiruvchi umummajburiy qoidalar tizimidir. Pedagogik jihatdan u qadriyatga asoslangan huquqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi.

Huquq sohasi – milliy va ijtimoiy qadriyatlar asosida muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari majmui bo‘lib, u jamiyat ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

Huquqiy munosabatlar – milliy qadriyatlar asosida tartibga solinadigan, ishtirokchilari o‘zaro hurmat, mas’uliyat va adolat tamoyillariga amal qiladigan ijtimoiy aloqalardir.

Davlat hokimiyati organi – milliy manfaatlar va qadriyatlarni himoya qilish, adolatni ta’minlash va ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiluvchi vakolatli institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Qonun – milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda ishlab chiqilgan, jamiyat hayotini tartibga soluvchi va adolatni ta’minlashga qaratilgan umummajburiy qoidalar tizimidir.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar – jamiyatda milliy qadriyatlar, huquqiy tartib va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus davlat institutlari hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarning aniqlashtirilgan mazmuni shuni ko‘rsatadiki, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayoni faqat normativ bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarda huquqiy qadriyatlar, huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorning uzviy shakllanishini ham taqozo etadi. Mazkur tushunchalarning milliy qadriyat yo‘nalishida talqin etilishi esa huquqiy bilimlarning shaxsiy e’tiqod darajasiga ko‘tarilishiga, ularning amaliy faoliyatda barqaror namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Demak, huquqiy madaniyatning tarkibiy elementlari hamda asosiy kategoriyalarini milliy qadriyatlar asosida integratsiyalashgan holda yoritish o‘quvchilarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishda muhim pedagogik shart-sharoitlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa keyingi bosqichda mazkur jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xulosa. “Huquqiy ong” va “huquqiy savodxonlik” tushunchalarining pedagogik kategoriya sifatida talqini shuni ko‘rsatdiki, ular o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan, shaxsning huquqiy rivojlanganlik darajasini ifodalovchi kompleks tizimni tashkil etadi. Huquqiy ong o‘quvchilarning huquqiy hodisalarga nisbatan bilimlari, baholari va e’tiqodlarini qamrab olsa, huquqiy savodxonlik ushbu bilim va munosabatlarning amaliy faoliyatda qo‘llanish darajasini aks ettiradi. Shu bois, mazkur tushunchalarni pedagogik kategoriya sifatida talqin etish ularni rivojlantirish jarayonini faqat nazariy bilim berish bilan emas, balki o‘quvchilarda huquqiy tafakkur, refleksiya va mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirishga yo‘naltirish zaruratini asoslaydi.

1. Huquqiy madaniyatni rivojlantirishda gender yondashuvining qo‘llanilishi o‘quvchilarning jinsga xos psixologik xususiyatlari, ijtimoiy rollari va kommunikativ xulq-atvoridagi farqlarni hisobga olish orqali ta’lim jarayonining individuallashtirilishini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gender yondashuvi asosida tashkil etilgan huquqiy ta’lim o‘quvchilarda huquqiy bilimlarni chuqurroq anglash, ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda huquqiy qaror qabul qilish va o‘z pozitsiyasini asoslab bera olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa huquqiy madaniyatni shakllantirishda psixologik-pedagogik omillarning muhimligini tasdiqlaydi.

2. Yuqori sinf o‘quvchilarining huquqiy savodxonligini rivojlantirishda milliy qadriyat yo‘nalishlariga tayangan yondashuv huquqiy bilimlarning shaxsiy e’tiqod darajasiga ko‘tarilishini ta’minlovchi muhim aksiologik mexanizm sifatida asoslandi. Milliy qadriyatlar – adolat, halollik, or-nomus, mas’uliyat, bag‘rikenglik kabi ijtimoiy-axloqiy mezonlar orqali o‘quvchilarda huquqiy normalarga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Natijada huquqiy bilimlar tashqi talab emas, balki ichki ehtiyoj va qadriyat sifatida qabul qilinib, ularning barqaror xulq-atvorga aylanishi ta’minlanadi.

3. Tadqiqot davomida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayoni huquqiy ong, huquqiy madaniyat va yuridik amaliy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligi asosida samarali kechishi aniqlashtirildi. Ya’ni, huquqiy bilimlarning shakllanishi (kognitiv bosqich), ularning qadriyatga aylanishi (aksiologik bosqich) va amaliy faoliyatda qo‘llanishi (faoliyat bosqichi) izchil jarayon sifatida qaralishi zarur. Ushbu bosqichlarning uyg‘unligi o‘quvchilarda huquqiy xulq-atvorning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

4. Olib borilgan nazariy tahlillar va umumlashtirishlar natijasida yuqori sinf o‘quvchilarining huquqiy savodxonligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun integrativ yondashuvga asoslangan pedagogik tizim zarurligi asoslandi. Mazkur tizimda milliy qadriyatlar, gender yondashuvi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning uyg‘unligi ta’minlanishi lozim. Bu esa keyingi bosqichda huquqiy savodxonlikni rivojlantirishning aniq metodik modeli, texnologiyalari va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga
molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-131-sonli Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-apreldagi “2026-2027 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 202-sonli Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-sonli Qonuni
6. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-sonli Qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi “2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 588-sonli Qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-soni Qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi “Davlat ta’lim muassasalarida yuridik ta’limning uzluksiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 532-sonli Qarori
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 27 avgustdagi “Davlat ta’lim muassasalarida yuridik ta’limning uzluksiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 532-sonli Qarori
11. Mirziyoev Sh.M. Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi, 2023 yil 28-avgust, <https://president.uz/oz/lists/view/6622>
12. Mirziyoev Sh. Bilimli avlod – buyuk kelesajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir // Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. <http://uza.uz/oz/politics/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018>
13. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: «O‘zbekiston», NMIU, 2017 y. – 91-bet

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

14. Hacker P (2012). “The Sad and Sorry History of Consciousness: being, among other things, a challenge to the “consciousness-studies community”” (PDF). Royal Institute of Philosophy. supplementary volume 70. Archived (PDF) from the original on 2022-10-09
15. Xalilov E.H. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o‘rni. – T.: “O‘zbekiston”, 1997. -48 b
16. Abdug‘aniyev O.T. Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2021 y. – 49 b.
17. Abdurahmonova Z. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. –T.: «Tafakkur», 2012 y. -32 b.
18. Kadirov E.O. Yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish masalalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida): Yuridik fanlari doktori (DSc). dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. -57 b.

19. Shermuhamedova N.A. “Gnoseologiya – bilish nazariyasi”, –T.: Noshir, 2011. – 6 b.Toshkent

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

20. Connell R. Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. Stanford University Press.
<https://books.google.com/books?id=GEJ1AAAAMAAJ>
21. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. Routledge, 1990.
GENDER TROUBLE: Feminism and the Subversion of Identity
22. Bem S. The Lenses of Gender: Transforming the Debate on Sexual Inequality. Yale University Press, 1993.
<https://books.google.com/books?id=qE2dQgAACAAJ>
23. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya).-T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004. -85 b.
24. Xakimjonov B.X. O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish asosida o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Chirchiq.: 2024 yil. – B. 12.
25. Rizayeva U.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2023 yil. – B. 11..
26. Алексеев С.С. Право: азбука – теория – философия: Опыт комплексного исследования. М.: Статут, 1999. – С. 270-271